

---

## “Yagona davlat nazorati” tizimida ro‘yxatga olinmagan tadbirkorlik faoliyatini tekshirishlar noqonuniy hisoblanadi

Prezidentimizning joriy yil 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish hamda nazorat qiluvchi organlarning mas’uliyatini oshirish va faoliyati ochiqligini ta’minlash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan edi. Ana shu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida davlatimiz rahbarining 2022-yil 13-sentyabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

“Yagona davlat nazorati” tizimi o‘zi nima? degan savol tug‘ilishi tabiiy mazkur tizim tadbirkorlik sohasida davlat nazorati bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan kelishish yoki xabardor etish orqali tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatida teshiruv o‘tkazish tashabbusini, o‘tkaziladigan tekshiruvlarni va ular natijalarini ro‘yxatga olishni ta’minlovchi elektron axborot tizimi hisoblanadi.

Qarorga muvofiq, nazorat qiluvchi organlar tomonidan 2022 yil 1 noyabrdan:

tadbirkorlarni tekshirishlar “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatga olinadi (ro‘yxatga olinmagan tekshiruvlarni o‘tkazish noqonuniy hisoblanadi);

tekshiruvlarning natijalari hamda profilaktika tadbirlari to‘g‘risida ma’lumot tadbirlar tugagan kundan 3 kunda “Yagona davlat nazorati” axborot tizimiga kiritiladi.

“Xavfni tahlil etish” tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida tadbirkorlar kamida 10 ish kuni oldin xabardor qilinadi.

Tadbirkorlarning ilgari tekshirilgan faoliyat davridagi predmeti va ob’ekti bo‘yicha qayta tekshiruv o‘tkazish va avval taqdim etilgan hujjatlarni talab qilish mumkin emas.

Mazkur qarorga ko‘ra, tadbirkorlar bir nechta holatda nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarini tekshiruv o‘tkazish uchun o‘z hududiga qo‘ymaslik huquqiga ega ekanligi belgilangan bular:

tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq rasmiylashtirilmaganda;

tekshiruv Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan kelishilmaganda yoki u xabardor etilmaganda;

tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnoma mavjud bo‘lmaganida;

ular Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobiga ma’lumotlarni kiritishdan bosh tortganida Tadbirkorlar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarini tekshiruv o‘tkazish uchun o‘z hududiga qo‘ymaslik huquqiga ega hisoblanadi.

Shuni ham eslatib o‘tishimiz joizki, 2023-yil 1-yanvardan nazorat qiluvchi organlarga “Yagona davlat nazorati” axborot tizimidagi davlat nazorati funktsiyalari reestriga kiritilmagan funktsiyalar bo‘yicha tadbirkorlar faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazish taqiqlanadi.

---

2022-09-17 11:28:24